




O'zbekiston Respublikasida muqobil energiya manbalaridan foydalanish

RAQAMLAR:

- Respublikamizdagi yuridik shaxslarning **3,9 %** muqobil energiya manbalaridan foydalanadi.
- Kuzatilgan yuridik shaxslar sonidan **2,7%** biogaz qurilmasidan foydalanadi.
- 1 ta biogaz qurilmasi bir oyda o'rtacha: **20,1 tonna** bioo'g'it, **1,3 ming kub. m.** biogaz ishlab chiqaradi.


2018 yil aprel oyida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Respublikamizda muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlarining yuqori emasligiga qaramasdan (kuzatilgan korxonalarining 3,9 %), ko'rsatkichning o'tgan yilgi kuzatuv natijalariga (3,7 %) nisbatan o'sish

tendensiyasi kuzatildi.




Biogaz qurilmalaridan foydalanish ko'rsatkichlari o'zgarishsiz qolishi bilan bir qatorda (kuzatilgan korxonalar sonining 2,7%) quyosh batareyalari va quyoshda ishlaydigan kollektor qurilmalaridan foydalanadigan korxonalarining ulushi oshganini kuzatish mumkin.

Respublika xududlari bo' uicha kuzatilgan korxonalarning umumiy soniga nisbatan muqobil energiya manbalari mavjudligi % da



Olingan natijalarga ko'ra xududlarda muqobil energiya manbalaridan foydalanish Navoiy viloyati (12,5 % viloyatda kuzatilgan korxonalar sonidan), Qashqadaryo (7,5%) viloyatlaridan tashqari sezilarli darajada farq qilmaganini ko'rsatdi.

Kuzatilgan korxonalarning umumiy soniga nisbatan muqobil energiya manbalari mavjudligi % da



Shu bilan bir qatorda, ta'mirlash va modernizatsiya qilish ishlari olib borilganligi natijasida, biogaz qurilmasi mavjud korxonalarining 24 % da biogaz qurilmalari bir oyda o'rtacha biogaz va bioo'g'it ishlab chiqarish o'tgan yildagi kuzatuv natijalariga nisbatan past bo'ldi.

1 ta biogaz qurilmasining bir oyda o'rtacha mahsulot ishlab chiqarishi



O'tgan yilgi kuzatuvga qaraganda, fotoelektrik qurilmalar tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining o'rtacha miqdori 6 barobar ko'paygan. Suvni isitish uchun quyosh kollektor qurilmalaridan foydalanadigan korxonalarda, guvohnomaga ega zamonaviy elektr tejamkor suv isitish qozonlari o'rnatilgan.

Fotoelektrik qurilmalar va suvni isitish uchun quyosh kollektor qurilmalarining o'rtacha foydalanish ko'rsatkichlari



**Davlat statistika qo'mitasining
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46